



ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА
ИЖТИМОИЙ - ГУМАНИТАР
ФАНЛАР ТИЗИМИНИНГ
ТАКОМИЛЛАШУВИ**

Республика илмий-амалий анжумани
материаллари

ҚАРШИ-2018



МУНДАРИЖА

№	Муаллифлар Ф.И.Ш.	Мақола номи	Бет
1	<i>Б.А.Шоимқулов</i>	СЎЗ БОШИ	3
І ШУЎБА. ЗАМОНАВИЙ ЦИВИЛИЗАЦИЯ ВА УНИНГ ИНСОН МАЪНАВИЯТИГА ТАЪСИРИ			
2	<i>Коптаева Г.П. Косанбаев С.К. Абдижаппаров А.Т.</i>	Из истории духовного наследия народов центральной Азии (На примере казахского и узбекского народов)	5
3	<i>Қаноатова Ф.Б.</i>	Ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари	9
4	<i>Р.Бойқобилова</i>	Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантиришда оила тарбиясининг аҳамияти	11
5	<i>М.Э.Эшматов</i>	Одамлар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш йўллари	15
6	<i>Ш.А.Эрматов</i>	Демократик жамиятда замонавий бошқариш босқичлари ва усуллари	18
7	<i>М.Файзиева</i>	Глобллашув, тарихий жараён ва маънавият	21
8	<i>Т.Х.Курбонов А.Т.Ҳамдамов</i>	Шахс тарбиясида маънавият фанининг ўрни	24
9	<i>М.С.Мақсадова</i>	Ахборот ва жамият тараққиёти	28
10	<i>Ҳ.Камолова</i>	Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури ва демократик ҳуқуқий давлат куриш	31
11	<i>Д.М.Худойбердиев</i>	Мафкуравий таҳдидларнинг маънавий тарбияга таъсири	36
12	<i>Ш.Бекова</i>	Мактабгача ёшда бола шахсининг маънавий шаклланишида психологик хизматнинг ўрни	39
13	<i>А.Толипов</i>	Жамият тараққиётида хотин-қизлар дунёқарашининг ўзгариши масалалари	42

14	<i>С.Қулатова</i>	Ахборотлашган жамиятда ёшлар психологиясига таъсир этувчи омиллар	45
15	<i>Ф.Ражабова</i>	Ижтимоий - психологик хавфсизлик муаммолари	47
16	<i>Z.O.Ibragimova</i>	Bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash dolzarb masala	51
17	<i>Д.Рўзибоев</i>	Томорқа ер эгалитининг ижтимоий-маънавий мухитни ўзгартиришдаги аҳамияти	54
18	<i>S.A'zamova</i>	Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda gender muammosi va uni hal etishning ahamiyati	57
19	<i>О.Очилова</i>	Амир темур даврида илм-фан ва маънавият ривож	62
II ШУЪБА.			
ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪНАВИЯТГА ОИД ФАНЛАРНИ ЎРГАНУВЧИ ТИЗИМНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИ			
20	<i>М.Э.Эсиматов</i>	Ижтимоий фанларни ўқитилишидаги айрим мулоҳазалар	66
21	<i>Т. Валиев</i>	Йўлсозлик терминларининг шаклий тузилишига кўра турлари	68
22	<i>Ш.Бобожонов Ш.Бобожонова</i>	Таълим тизимида инновацион педагогик технологияларни қўллаш – давр талаби	72
23	<i>Н.Ражабова Ш.Якубова</i>	Чжан Цзяннинг ўзбекистон шаҳарларига саёҳати тарихидан	75
24	<i>А.Якубов</i>	Фуқаролик қонунчилигида муаллифлик ҳуқуқининг ҳимоя белгилари	80
25	<i>А.Якубов</i>	Муаллифлик ҳуқуқининг ўзга шахсларга ўтиш тартиби	81
26	<i>D.H.Sunatov</i>	Estetik ong va uning tuzilmasi	86
27	<i>Z.Kenjaye</i>	Mamlakatimizni demokratik rivojlantirishning huquqiy asoslari takomillashuvi	91

28	<i>С.Ниёзов</i>	Маънавий ва маърифий ишларни режалаштириш, ташкил этиш ва бошқаришнинг ўзига хослиги	94
29	<i>D.H.Sinatov J.X.Boysunov N.A.Rahmatova</i>	Estetik did va estetik ideal – estetik anglash tuzulmasi sifatida	96
30	<i>Э.Боратов</i>	Толерантликни шакллантиришнинг объектив ва субъектив жиҳатлари	101
31	<i>Д.Маматқулова</i>	Миллий мафкуранинг ахлоқий негизлари	104
32	<i>Н.Муминова</i>	Темурийзода исмлар хақида баъзи мулоҳазалар	107
33	<i>И.Жабборова</i>	Темурийлар даври суғорма деҳқончилик маданияти тарихидан	110
34	<i>С.Ҳ.Зарипов</i>	Давлат ҳокимияти маҳаллий вакиллик органлари ходимларининг маънавий фазилатлари	113
35	<i>Ф.Нарзуллаев</i>	Ўзбекистонда экологик вазият ва унинг муаммолари тарихи	116
36	<i>О. Rustamova</i>	Tolerantlik - barqaror taraqqiyot asosi	121
37	<i>Н.Имомова Ш.Бобожонов</i>	Тарбия жараёнида инновацион технологиялардан фойдаланиш таълим сифатини оширишнинг муҳим омилдир	123
38	<i>С.Бобоқулова</i>	Чет тилларини ўрганаётган ёшларнинг маънавий кифаси	126
39	<i>Б.Зиёдуллаев</i>	Ўқитувчида фаол таълим омиллари ва таълим – тарбия қонуниятлари	129
III ШУЪБА.			
ИННОВАЦИОН ҲОЯЛАР, АКТ ВА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТГА АСОСЛАНГАН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ШАРОИТИДА ЯНГИ ЎҚУВ ДАСТУРЛАРИ ЯРАТИШ МУАММОЛАРИ			
40	<i>М.Н.Холбеков</i>	Матн ва интерматнлик назариясининг фалсафий талқини	134
41	<i>О.Эргашев Д.Рузибоев</i>	Қишлоқ аҳолисининг ижтимоий-маънавий ҳаётидаги ўзгаришларининг негизлари	141

42	<i>A.Hasanov N.Axmadova</i>	O'zbekistonning markaziy osiyo davlatlari bilan ma'naviy qadriyat-larning mushtarakligi	143
43	<i>A.P.Turaeva</i>	Синий-хукукий жараёнларнинг оилавий мухитга таъсири	146
44	<i>Ф.Маллаева</i>	Таълим сифатини такомиллаш-тиришда педагогик технологиялар-дан фойдаланишнинг мохияти	149
45	<i>Ш.Дусмуродов</i>	Шахси фаоллаштиришга йўнал-тирилган таълим технологиялари	151
46	<i>S.Z.Tursumova</i>	Innovatsion texnologiyalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini shakllantirish	155
47	<i>M.H. Quvatova</i>	Innovatsion yondashuv – ta'lim samaradorligini oshirish omili	158
IV ШУЪБА			
АХБОРОТ ХУРУЖИ: ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИ ВА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТ			
48	<i>M.Олтибоев</i>	Ўзбекистон Республикаси муста-киллиги шароитида диний багрикенглик.	161
49	<i>Ф.Қаноатова</i>	Шахс камолотида китобхонлик маданиятининг ўрни	166
50	<i>X.Махманова</i>	“ФЛЭШМОБ” интернет орқали амалга ошириладиган маънавий таҳдид	171
51	<i>A.Жўраев</i>	Маънавият – энг таъсирчан ва кудратли куралимиз	174
52	<i>Л.Бекназарова</i>	Ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини шакллантириш масаласи	178
53	<i>N.Орипова</i>	Yoshlarni ma'naviy xurujlardan himoyalash muammosining zarurati va dolzarbligi	182
54	<i>X.Каримов</i>	Шахс маънавиятини шакллан-тириш масалалари	184
55	<i>A.X.Рўзиев</i>	Ахборот хуружи: мафкуравий иммунитет	187
56	<i>B.Karimov</i>	Milliy qadriyatlar va yoshlarda hayotiy maqsadni shakllantirish masalalari	190

57	<i>Р.Эриязарова</i>	Талаба ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини шакллантириш	193
58	<i>С.Авазов</i>	Гарб маданиятига тақлиднинг ёшлар маънавиятига таъсири	197
59	<i>Р.Бойматов</i>	Замонавий ахборот-коммуникация воситаларининг ёшлар маънавиятига таъсири	199
60	<i>Холмуродова Мадина Алишер қизи</i>	Ёшларнинг маънавий тарбияси	202
61	<i>Д.Шукурова</i>	Глобаллашув ва ахборотнинг психологик хавфсизлиги	204
62	<i>Н.Абдуназарова</i>	Ахборотлашув жараёнининг жамият таракқиётига таъсири	206
63	<i>Хайдаров Камол Ашурович</i>	Ахборотни психологик хавфсизлигини таъминлаш: назарий ёндашув	208
64	<i>N.A.Rahmatova</i>	Ommaviy madaniyatning yoshlarga ta'siri	213
65	<i>Z.Boymurodov</i>	Axborotlashgan jamiyat va mafkuraviy xurujlar	215
66	<i>З.Файзиев</i>	Мафкура ва психологик хавфсизлик муаммолари	219
67	<i>Yu.To'rayeva</i>	Axborot xuruji va yoshlar tarbiyasi	221
68	<i>Ш.Д.Худойқулова</i>	Китоб мутооласи – шахс маънавий - ахлоқий юксалишининг омили сифатида	224
69	<i>G.Yo.Ostonova N.S.Hamidova</i>	Internetning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri	229
70	<i>О.Х.Хўжамуродова</i>	Мақол ва ҳикматли сўзлар – маънавий тарбия қуроли ("Тул" сўзли мақоллар мисолида)	232
71	<i>A.Lutfullayev</i>	Globalashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar	235
72	<i>M.B.Rahmonova</i>	Мақтабгача ёшдаги болалар психологиясида таълим ва тарбиянинг ўрни	238
73	<i>X.Mo'ilyeva</i>	Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий тафаккурини ривожлантириш	241

TOLERANTLIK - BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

O. Rustamova – magistrant, Qarshi DU

„Tolerantlik“ ya’ni bag‘rikenglik tushunchasi ijtimoiy hayotning turli sohalarida jumladan, siyosat, madaniyat, iqtisod, sotsiologiya va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Lotincha „tolerare“ chidamoq, sabr qilmoq, toqatli bo‘lmoq ma’nolarini anglatgan „tolerantlik“ so‘zi asosan biror narsani, o‘zgacha fikr yoki qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’iy nazar imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil, bir-birini to‘ldiruvchi ma’no kasb etib, chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, himmatlilik, kechirimlilik, hamdardlilik kabi ma’nolarga ega.

Tolerantlikni zamonaviy tushunish va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri ekanligini anglash XX asrning so‘ngi choragidan boshlangan. 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida fan, ta’lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot YUNESKO bosh konferensiyasining 28-sessiyasida „Tolerantlik Tamoyillari Dekloratsiyasi“ imzolandi. Dekloratsiyada irqi, jinsi, millati, kelib chiqishi, tili, dinidan qat’iy nazar tolerantlikni targ‘ib qilish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qoyilgan. Shuni unutmaslik kerakki qayerda millatlararo tutuvlik, diniy bag‘rikaenglik, g‘oyalariga etibor berilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi va ular tinchlik va barqarorlikga rahna soladi. Bugungi kunda dunyoning ayrim davlatlarida sodir bo‘layotgan milliy, etnik nizolar yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Bugungi kunda xavfsizlik va tinch-osoyishtalik masalalari barcha mamlakatlar oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Bugungi shiddatli davrda buzg‘unchi kuchlar o‘z g‘arazli maqsadlarini turli niqoblar ostida qabix usullardan foydalangan holda targ‘ib qilmoqdalar. Ularning asosiy maqsadlaridan biri turli millat va elat vakillari orasida milliy va diniy nizolarni keltirib chiqarishdir. Bu kabi nizolarning oldini olish choralarini topish har bir o‘z fuqarolari tinch-totuvligini, mustaqilligini, erkini,

ma'naviyatini saqlab qolishga intilayotgan barcha davlatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritgan keyingi davr ichida 130 dan ortiq millat va elat vakillari bilan tinch-totuv yashamoqda va barqaror taraqqiyotga erishmoqda. Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek „Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom manodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'gan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi“. Ko'p millatli davlatimizda turli millat va elat vakillarining huquqlarini himoya qilish, ularning tinch-totuv yashashlari uchun munosib turmush sharoitini yaratib berish davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun eng avvalo ko'pmillatli xalqimiz ongiga „tolerantlik“ ya'ni bag'rikenglik g'oyasini singdirishimiz darkor.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni taminlash orqali tinchlik va barqarorlikka erishish g'oyasini muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov har bir nutqlarida, har bir ma'ruzalarda takidlab o'tganlar. Bu g'oyani hayotga tadbiiq etishda bugungi kunda ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshinchi ustuvor yo'nalishi sifatida „Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni taminlash hamda chuqur oylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar“ belgilandi. Bu ham yurtumizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka berilayotgan yuksak e'tibordan darak beradi. Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, „Bag'rikenglik“ bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi. Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlari ham tolerantlik tamoyillarinig naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi. „Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda vatanga muhabbat va

sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining manfaatlari turli-tumanligi sharoitida ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, barqaror taraqqiyotga erishishda tolerantlikni taminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki manfaatlar xilma xilligi turli millat vakillari o'rtasida ma'lum muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu muammolar barqaror taraqqiyotga raxna solmasdan qolmaydi. Bu kabi muammolarga duch kelmaslik uchun manfaatlarni muvozanatga keltiruvchi "mexanizm" ishlab chiqish zarur. Ana shunday mexanizmlardan biri bu turli millat va din vakillari, ijtimoiy guruhlar, turli sinflar, xalqlar o'rtasidagi tolerantlikni shakllantirishdir. Barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lgan tolerantlik jamiyat a'zolari bo'lgan oddiy insonlardan tortib, ummumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik qanchalik rivojlansa jamiyat a'zolarining tinch totuv yashashlari farovon hayot kechirishlari kafolati shuncha ortadi.

ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР

*Н.Имомова – кат. ўқит.,
Қарши маданият ва туризм коллежи;
Ш.Бобожонов – талаба, ҚарДУ*

Мустақилликка эришгач, Ўзбекистонимиз барча соҳалар бўйича тараққиётнинг янги йўлига кириб, ватанпарварлик, инсонпарварлик, адолатпарварлик сўзлари янада жозибали ва жарангдор бўлиб, янги мазмун билан бойиб бормоқда.

Ўтган киска, айниқса, тарих учун унутилмас кейинги икки йилда ҳар томонлама баркамол, мустаҳкам билимли, фидойи, ватанпарвар, садоқатли ва халқпарвар юртдошларимизнинг, ватанимизнинг келажагига ва эртанги кунга ҳамда бахтли яшашга бўлган ишончи тобора ортиб бормоқда.